

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH YO‘LLARI**

Qurbanboyeva Odina Sayfiddin qizi

Mustaqil izlanuvchi.

E-mail: qurbanboyevao@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21327769>

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli transformatsiya sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish hamda yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish masalalari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda elektron hisobvaraƒ-faktura, onlayn nazorat-kassa texnikalari, raqamli markirovka, elektron soliq hisobotlari, avtomatlashtirilgan risk-tahlil, idoralararo ma‘lumot almashinuvi hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarining soliq nazoratidagi ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda soliq tushumlari dinamikasi, yashirin iqtisodiyotning mavjud ko‘lami va raqamlashtirish natijasida yuzaga kelayotgan ijobiy o‘zgarishlar statistik ma‘lumotlar asosida baholangan. Tezis yakunida soliq nazoratini yanada samarali tashkil etish, yashirin aylanmalarni aniqlash va soliq intizomini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, soliq nazorati, yashirin iqtisodiyot, elektron hisobvaraƒ-faktura, onlayn kassa, raqamli markirovka, Big Data, sun‘iy intellekt, soliq ma‘murchiligi.

Abstract. This thesis analyzes the issues of improving tax control and reducing the scale of the shadow economy in the context of digital transformation. The study highlights the importance of electronic invoices, online cash register techniques, digital marking, electronic tax reports, automated risk analysis, interdepartmental information exchange, and artificial intelligence technologies in tax control. Also, the dynamics of tax revenues in Uzbekistan, the current scale of the shadow economy, and the positive changes resulting from digitalization are assessed based on statistical data. At the end of the thesis, scientific and practical proposals are developed for more effective organization of tax control, identification of hidden turnover, and strengthening tax discipline.

Keywords: digital transformation, tax control, shadow economy, electronic invoices, online cash register, digital marking, Big Data, artificial intelligence, tax administration.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishning eng muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Avvalgi yillarda soliq nazorati asosan hisobot topshirilgandan keyingi tekshiruvlarga tayangan bo‘lsa, hozirgi bosqichda elektron hisobvaraƒ-faktura, onlayn nazorat-kassa texnikalari, raqamli markirovka, taksi agregatorlari integratsiyasi, “Avtokameral” tizimi va risk-tahlil mexanizmlari orqali real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyati shakllanmoqda.

O‘zbekiston soliq tizimida raqamlashtirishning fiskal natijalari soliq tushumlari dinamikasida yaqqol ko‘rinadi. 2024-yilda soliq organlari tomonidan respublika bo‘yicha 199,6 trln so‘m soliq tushumlari ta‘minlanib, bu 2023-yilga nisbatan 20 foizga ko‘p bo‘lgan. 2025-yilda esa budjetga 247,8 trln so‘m tushum ta‘minlangan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 24 foizga yuqori

natijadir. Demak, bir yil ichida soliq tushumlari qariyb 48,2 trln so'mga oshgan. Bu o'sishda iqtisodiy faollik bilan bir qatorda soliq bazasini raqamli usullar orqali aniqlash, yashirin aylanmalarni kamaytirish va elektron nazorat vositalarining kengayishi muhim rol o'ynamoqda.

Soliq turlari kesimida 2025-yil natijalari shuni ko'rsatadiki, eng katta tushum foyda solig'i hisobiga shakllangan — 72,3 trln so'm. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 45,2 trln so'm, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 42,4 trln so'm, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha 25,8 trln so'm va aksiz solig'i bo'yicha 20 trln so'm tushum ta'minlangan. Ayniqsa, foyda solig'i bo'yicha 37 foizlik, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha 28 foizlik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 20 foizlik o'sish soliq nazorati va soliq bazasini aniqlash mexanizmlari kuchayayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

2025-yilda asosiy soliq turlari bo'yicha tushumlar

Soliq turi	Tushum, trln so'm	2024-yilga nisbatan o'sish
Foyda solig'i	72,3	37%
Qo'shilgan qiymat solig'i	45,2	14%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	42,4	20%
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	25,8	28%
Aksiz solig'i	20,0	13%
Soliqsiz tushumlar	19,5	31%
Yer solig'i	10,0	22%
Mol-mulk solig'i	8,0	18%
Aylanmadan olinadigan soliq	3,1	8%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1,4	21%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari soliq nazoratini raqamlashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 498,0 trln so'mni yoki YAIMning 26,9 foizini tashkil etgan.

Shundan uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati 351,0 trln so'm yoki YAIMning 19,0 foizi, yashirin iqtisodiyot esa 147,0 trln so'm yoki YAIMning 7,9 foiziga teng bo'lgan. 2026-yilning yanvar–mart oylarida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 102,7 trln so'mni yoki YAIMning 22,9 foizini tashkil etgan, shundan yashirin iqtisodiyot 33,6 trln so'm yoki YAIMning 7,5 foiziga teng bo'lgan.

2-jadval

O'zbekistonda kuzatilmaydigan va yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari

Davr	Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi	YAIMdagi ulushi	Yashirin iqtisodiyot hajmi	YAIMdagi ulushi
2025-yil	498,0 trln so'm	26,9%	147,0 trln so'm	7,9%
2026-yil yanvar–mart	102,7 trln so'm	22,9%	33,6 trln so'm	7,5%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

Mazkur raqamlar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot hali ham soliq nazorati uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, 2025-yilda yashirin iqtisodiyotning 147 trln so'mga yetgani soliq organlari faqat tekshiruvlar orqali emas, balki elektron ma'lumotlar tahlili orqali xavfli operatsiyalarni oldindan aniqlashi zarurligini ko'rsatadi. 2026-yilning birinchi choragida yashirin iqtisodiyot ulushi 7,5 foiz bo'lgani esa muammo saqlanib qolayotganini, lekin raqamli nazorat vositalari kengaygani sari uni bosqichma-bosqich kamaytirish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Soliq nazoratining yangi bosqichida elektron hisobvaraqa-fakturalar muhim tahliliy manbaga aylanmoqda. Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 289 177 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan jami QQS summasi 169,5 trln so'mlik EHFlar rasmiylashtirilgan. Shu bilan birga, 98 105 ta subyekt, ya'ni 34 foizi tomonidan 12,8 trln so'mlik EHFlarga tuzatishlar kiritilgan. Bundan tashqari, 2 743 ta tadbirkorlik subyekti avvalgi davrlar uchun QQS summasi 760 mlrd so'm bo'lgan EHFlarga tuzatish kiritgan bo'lsa-da, aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim etmagan. Bu holat EHF ma'lumotlarini avtomatik tahlil qilish soliq bazasini yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish holatlarini aniqlashda muhim ekanini ko'rsatadi.

2026-yil 1-yanvardan elektron hisobvaraqa-fakturalarni xavf darajasiga qarab real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan baholash tizimi joriy etilishi belgilangan. Ushbu tizim EHF rasmiylashtirilayotgan paytning o'zida qonunbuzilish ehtimolini baholaydi va yuqori xavf belgilari aniqlansa, xaridorga ko'rsatiladi. Bu amaliyot soliq nazoratini "keyin tekshirish" modelidan "oldindan ogohlantirish va riskni baholash" modeliga o'tkazadi.

Raqamli nazoratning yana bir natijasi soliq auditida ko'rinadi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida soliq audit faoliyat ko'rsatgan jami 529,5 ming soliq to'lovchining faqat 0,2 foizida o'tkazilgan. Ya'ni audit ommaviy emas, xavf darajasi yuqori bo'lgan 967 ta tadbirkorlik subyektiga qaratilgan. Ushbu auditlarda 3,3 trln so'mlik soliq xavfi aniqlangan va soliq audit natijasida 3,2 trln so'm summa aniqlangan. Bu riskka asoslangan nazorat yondashuvi soliq organlarining resurslarini tejimli va samarali yo'naltirish imkonini berayotganini ko'rsatadi.

Onlayn nazorat-kassa texnikalari ham yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim o'rin tutmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar va kassa cheklari 100 foiz elektron shaklda rasmiylashtirilayotgani, QQS hisobotlarining 93 foizi, mol-mulk, yer solig'i va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlari esa 100 foiz avtomatik shakllantirilayotgani qayd etilgan.

Onlayn-KKT orqali 1 mlrddan ortiq chek rasmiylashtirilib, ular bo'yicha aylanma 261,1 trln so'mni tashkil etgan. Bu savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi naqd aylanmalarni elektron nazoratga olish imkoniyatini kengaytiradi.

Taksi agregatorlari misolida raqamli integratsiya yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning amaliy natijasini ko'rsatmoqda. 2025-yil yakuniga ko'ra, 224 ta taksi agregatori soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan. Ular orqali 479 mln marta yo'lovchi tashish amalga oshirilgan, yo'lovchi tashish aylanmasi 9,6 trln so'mdan oshgan. Shundan 6,7 trln so'm yoki 70,2 foizi naqd to'lovlar, 2,8 trln so'm yoki 29,8 foizi naqdsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Agregatorlar orqali 574,6 ming o'zini o'zi band qilgan haydovchi faoliyat yuritgan va 2025-yilda agregatorlar tomonidan 128,2 mlrd so'm soliq, shundan 63,6 mlrd so'm QQS to'langan.

Raqamli markirovka tizimi ham xufiyona aylanmani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. 2024-yilda “Raqamli markirovka” tizimida 3,5 ming subyekt ro‘yxatdan o‘tgan, 100 mingdan ortiq mahsulot turi katalogga kiritilgan va qariyb 8,2 mlrd dona markirovkalangan tovar ishlab chiqarilgan. Bu tizim orqali mahsulotlarning ishlab chiqarishdan iste’molchigacha bo‘lgan harakati kuzatiladi, kontrafakt mahsulotlar va hujjatsiz savdo holatlarini kamaytirish imkoniyati kengayadi.

Raqamli transformatsiya soliq nazoratini uch yo‘nalishda kuchaytirmoqda. Birinchidan, elektron hujjatlar orqali soliq bazasi aniqroq ko‘rinmoqda. Ikkinchidan, onlayn nazorat tizimlari orqali naqd va naqdsiz aylanmalar real vaqt rejimida qayd etilmoqda. Uchinchidan, risk-tahlil va avtomatlashtirilgan audit orqali soliq tekshiruvlari umumiy emas, balki xavfi yuqori subyektlarga yo‘naltirilmoqda. Natijada soliq organlari ortiqcha ma‘muriy bosimni kamaytirgan holda soliqdan bo‘yin tovlash xavfi yuqori bo‘lgan sohalarni aniqroq nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

2024–2026-yillarning yangi statistik ma‘lumotlari O‘zbekistonda soliq nazoratining raqamli modelga o‘tishi sezilarli natija berayotganini tasdiqlaydi. Soliq tushumlarining 2025-yilda 247,8 trln so‘mga yetishi, yashirin iqtisodiyot ulushining monitoring qilinishi, EHF bo‘yicha real vaqt risk baholash tizimining joriy etilishi, soliq auditining 0,2 foiz soliq to‘lovchilarga nisbatan maqsadli qo‘llanilishi hamda taksi agregatorlari orqali 9,6 trln so‘mlik aylanmaning ko‘rinishi raqamli nazorat yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda amaliy samara berayotganini ko‘rsatadi. Shu bois kelgusida soliq nazoratida Big Data, sun‘iy intellekt, avtomatik risk baholash, idoralararo ma‘lumotlar integratsiyasi va elektron audit mexanizmlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Raqamli transformatsiya sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning eng muhim va samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimida elektron hisobvara-faktura, onlayn nazorat-kassa texnikalari, raqamli markirovka, elektron hisobot, “Avtokameral” nazorat tizimi, idoralararo axborot almashinuvi, Big Data va sun‘iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi soliq ma‘murchiligining shaffofligi va tezkorligini oshirmoqda.

Soliq nazoratining raqamli shaklga o‘tishi davlat budjeti daromadlarining barqaror o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2024-yilda soliq tushumlari 199,6 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 247,8 trln so‘mga yetgan. Bu esa raqamli nazorat mexanizmlari orqali soliq bazasini kengaytirish, yashirin aylanmalarni aniqlash va soliq intizomini kuchaytirish imkoniyatlari ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot hajmining yuqoriligi soliq nazoratini yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. 2025-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 498,0 trln so‘mni, yashirin iqtisodiyot esa 147,0 trln so‘mni tashkil etgani soliq organlari oldida katta vazifalar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli soliq nazoratida an‘anaviy tekshiruvlardan ko‘ra avtomatlashtirilgan, xavfga asoslangan va real vaqt rejimida ishlovchi nazorat mexanizmlarini kengaytirish zarur. Tezis natijalariga ko‘ra, elektron hisobvara-fakturalar xo‘jalik operatsiyalarini shaffoflashtirishda, onlayn kassa texnikalari chakana savdo va xizmatlar sohasidagi yashirin naqd aylanmalarni kamaytirishda, raqamli markirovka esa mahsulotlar harakatini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Taksi agregatorlari, marketpleyslar va boshqa raqamli platformalarning soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishi esa norasmiy faoliyatni rasmiylashtirish hamda soliq tushumlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, soliq nazoratini raqamlashtirish jarayonida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, kichik biznes subyektlarining raqamli savodxonligi yetarli emasligi, ayrim hududlarda raqamli infratuzilmaning sust rivojlanganligi, ma'lumotlar bazalarining to'liq integratsiyalashmaganligi, kiberxavfsizlik xavflari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani ushbu sohada qo'shimcha chora-tadbirlarni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq nazoratini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, soliq nazoratida sun'iy intellekt va Big Data asosidagi risk-tahlil tizimlarini kengaytirish lozim. Bu soliقدan bo'yin tovlash xavfi yuqori bo'lgan subyektlarni oldindan aniqlash va tekshiruvlarni maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, elektron hisobvaraқ-faktura, onlayn kassa, bank, bojxona, kadastr, statistika va boshqa davlat idoralari ma'lumotlar bazalarini yagona raqamli platforma orqali chuqur integratsiya qilish zarur.

Uchinchidan, kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun raqamli soliq xizmatlaridan foydalanish bo'yicha bepul o'quv kurslari, videoqo'llanmalar va mobil maslahat xizmatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, raqamli markirovka tizimini yashirin aylanma yuqori bo'lgan mahsulot guruhlariga bosqichma-bosqich kengaytirish kerak. Bu kontraфakt mahsulotlar, noqonuniy savdo va hujjatsiz aylanmalarni kamaytirishga yordam beradi.

Beshinchidan, soliq tizimida kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Chunki raqamli soliq tizimida katta hajmdagi moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlar jamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi (2019) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'RQ-599-son, 30-dekabr. Toshkent: Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son Qarori. 10-iyul. Toshkent: Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 5-oktabr. Toshkent: Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024) "Majburiy raqamli markirovkalash jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-203-son Qarori. 30-may. Toshkent: Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024) Fiskal strategiya 2025–2027. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2026) O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti: 2025-yil yanvar–dekabr yakunlari bo‘yicha tahliliy axborot. Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2026) Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 102,7 trillion so‘mni tashkil etdi. Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (2025) 2025-yilning I choragida soliq tushumlari 48 trln so‘mdan oshdi. Toshkent: Soliq qo‘mitasi.
9. Dehqonov, G.R. (2025) “O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish: xalqaro tajriba, amaliyot va istiqbollar”. *Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali*.
10. Kodirov, A.X. o‘g‘li (2025) “Soliq nazoratini tashkil etishda xalqaro tajriba va O‘zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari”. *Economics and Innovative Technologies*, 13(6), 127–132.
11. OECD (2020) Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. Paris: OECD Publishing.
12. OECD (2024) Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.
13. OECD (2025) Tax Administration 3.0: From Vision to Strategy. Paris: OECD Publishing.
14. Junquera-Varela, R.F., Lucas-Mas, C.O., Krsul, I., Calderon Yksic, V.O. and Arce Rodriguez, P. (2022) Digital Transformation of Tax and Customs Administrations. Washington, DC: World Bank.
15. Bellon, M., Dabla-Norris, E., Khalid, S. and Lima, F. (2019) Digitalization to Improve Tax Compliance: Evidence from VAT e-Invoicing in Peru. IMF Working Paper. Washington, DC: International Monetary Fund.